


TOSHKENT SHAHAR KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra, shaharda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 104,2 mingtani tashkil etadi, shundan 92,1 mingtasi yoki 88,4 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	104 190	94 085	92 106
2024	97 997	87 793	85 973
2023	94 906	85 262	83 565
2022	112 645	102 654	101 097
2021	104 794	95 283	94 031

Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida ko'rib chiqilganda, eng ko'p ulush: Yunusobod tumanida – 11,9 foiz, Mirzo Ulug'bek tumanida – 11,8 foiz, Chilonzor tumani – 11,5 foiz, Olmazor tumani – 9,0 foiz va Shayxontohur tumanida – 9,2 foizni tashkil qilmoqda.

Kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Yunusobod tumanida – 11,8 foiz, Mirzo Ulug'bek tumanida – 11,6 foiz, Chilonzor tumani – 11,4 foiz, Olmazor tumani – 9,2 foiz va Yashnobod tumanida – 9,2 foizni tashkil qildi. foizni tashkil qil

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Toshkent shahar	104 190	94 085	92 106
Yunusobod tumani	12 378	11 040	10 778
Chilonzor tumani	11 949	10 665	10 465
Mirzo Ulug'bek tumani	12 332	10 924	10 667
Olmazor tumani	9 435	8 575	8 451
Shayxontohur tumani	9 543	8 404	8 174
Yashnobod tumani	9 604	8 694	8 479
Yakkasaroy tumani	9 225	8 515	8 349
Mirobod tumani	8 781	7 780	7 520
Uchtepa tumani	7 732	7 131	7 077
Sergeli tumani	6 272	5 865	5 762
Yangihayot tumani	3 994	3 726	3 656
Bektemir tumani	2 945	2 766	2 728

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- avgust holatiga 32,2 foizni tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 10,5 %, uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,8 %.


Ushbu uch turdagi faoliyat qolgan sohalarga nisbatan yuqori foizni tashkil qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	654	639	637
Sanoat	10 961	10 927	10 747
Qurilish	7 078	7 056	6 944
Savdo	33 509	33 501	33 021
Tashish va saqlash	4 257	4 243	4 155
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 333	6 330	6 246
Axborot va aloqa	5 437	5 372	5 191
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2 250	2 005	1 937
Boshqa turlar	33 711	24 012	23 228

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra, 94,1 mingta faol tijorat korxonalaridan 83,6 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	83 568	89,2
Xususiy korxonalar	6 760	7,0
Oilaviy korxonalar	3 059	3,1
Aksiyadorlik jamiyati	311	0,3
Boshqalar	387	0,4

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 10 668 ta korxonalardan 2 257 qo'shma korxonalar va 8 411 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- avgust holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosan, savdo sohasidagi korxonalar soni 4 106 ta, sanoat sohasida 1 208 ta va qurilish sohasida 878 taga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	10 668	2 257	8 411
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	59	20	39
Sanoat	1 208	450	758
Qurilish	878	167	711
Savdo	4 106	665	3 441
Tashish va saqlash	402	75	327
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	534	95	439
Axborot va aloqa	954	170	784
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	129	49	80
Boshqa turlar	2 398	566	1 832

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 2 295 ta korxona bilan Xitoy Xalq Respublikasi egalladi. Bu shahardagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,5 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (20,9%), Turkiya (11,5%), Qozog'iston (8,7%) va Janubiy Koreya (4,1%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	10 668	2 257	8 411
Rossiya	2 232	540	1 692
Xitoy	2 295	230	2 065
Turkiya	1 223	246	977
Qozog'iston	925	186	739
Afg'oniston	191	35	156
Janubiy Koreya	443	86	357
AQSH	231	93	138
Germaniya	154	63	91
Qirg'iz.Respublikasi	198	42	156
Boshqalar	2 776	736	2 040

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
J. Mustafoyev
71 203 80 03 (3560)

Maznil:
Toshkent sh. A. Temur shox
ko'chasi, 11-uy.
